

COVID-19 TA'SIRI NATIJASIDA GEPATOBILIAR TIZIMDAGI KLINIK O'ZGARISHLAR

Oripov SH.Q.

“Andijon Davlat Tibbiyot Instituti”

Annotatsiya:

Koronaviruslar (Coronaviridae) – RNK-saqlovchi viruslarning katta oilasi bo‘lib, xayvonlarni (ularning tabiiy xujaylarini), hamda odamlarni infitsirlash xususiyatiga ega. Serologik va filogenetik tahlil natijalari asosida koronaviruslar turta oilaga bo‘linadi: *Alphacoronavirus*, *Betacoronavirus*, *Gammacoronavirus* va *Deltacoronavirus*. Odamlarda koronaviruslar qator kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin – o‘tkir respirator infeksiyaning (ORVI) yengil shakllaridan og‘ir o‘tkir respirator sindromgacha (TORS ili SARS). Hozirgi davrda aholi orasida to‘rtta mavsumiy koronavirus (HCoV-229E, -OC43, -NL63 va HKU1) tarqalganligi ma‘lum bo‘lib, bu viruslar yil davomida ORVI tuzilmasida kuzatiladi, hamda odatda yuqori nafas olish yo‘llarining yengil va o‘rta darajadagi shikastlanishlarini keltirib chiqaradi, shuningdek ikkita yuqori patogen koronavirus – yaqin sharq respirator sindrom virusi (MERS) va yangi koronavirus infeksiyasi COVID-19 mavjud

Kalit so‘zlar: Covid-19, gepatobiliar tizim, immun tizim, a‘zolarning yallig‘lanishi

Annotation:

Coronaviruses (Coronaviridae) are a large family of RNA-storing viruses that infect animals (their natural hosts) as well as humans. Based on the results of serological and phylogenetic analysis, coronaviruses are divided into three families: *Alphacoronavirus*, *Betacoronavirus*, *Gammacoronavirus* and *Deltacoronavirus*. In humans, coronaviruses can cause a range of illnesses, from mild forms of acute respiratory infection (ORVI) to severe acute respiratory syndrome (TORS or SARS). It is now known that four seasonal coronaviruses (HCoV-229E, -OC43, -NL63, and HKU1) are prevalent in the population, and

that these viruses are observed throughout the year in the ORVI structure, and are usually mild to moderate respiratory infections. causes moderate injuries, as well as two highly pathogenic coronaviruses - Middle East Respiratory Syndrome Virus (MERS) and a new coronavirus infection COVID-19

Keywords: Covid-19, hepatobiliary system, immune system, organ inflammation

Dolzarbliqi. 2019-yilning ohirida Xitoy Xalq Respublikasida yangi koronavirus infeksiyasining ko'tarilishi kuzatildi, uning epitsentri Uhan shaxri-Xubey viloyatida bo'lgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) 2020-yil 11-fevralda yangi koronavirus tomonidan chiqarilgan infeksiyaning rasmiy nomini belgilab berdi COVID-19 (<<Coronavirus disease 2019>>) Xalqaro qo'mita 2020-yil 11-fevralda viruslar toksonomiyasi bo'yicha infeksiya qo'zg'atuvchisiga SARS-CoV-2 rasmiy nomini berdi. SARS-CoV-2 bir zanjirli RNK-ushlovchi virus bo'lib, coronaviridae oilasiga mansub. SARS-CoV-2 ning S-oqsili angiotenzin aylantirib beruvchi ferment (APF2) ga o'xshash. Virus inson organizmiga yuqori nafas yo'llaridan tushgach, respirator epiteliy, alveolotsitlar, alveola monotsiti, tomirlar endoteliysi, oshqozon-ichak epiteliysi, peshob yo'llari epiteliysi, Makrofaqarlar, xatto miokard va markaziy nerv tizimi kabi boshqa sistema va organlar retseptorlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu kasallikning tub patogenlik moyiyati destruktiv-produktiv trombovaskulit va giperkoagulyatsiyali sindrom, mikroangiopatiya va immun tizimning noadekvat javobi xicoblanadi. Kasallar organizmida SARS-CoV-2 ga javoban immun tizimini giperergik qo'zg'alishi, kuchli tizimli yallig'lanish sindromiga, o'pka alveolyar to'qimasi va boshqa a'zolarining og'ir o'zgarishiga alteratsiyasi va septik shok rivojlanoshiga sababchi bo'ladi.

Ishning maqsadi: Erkak va ayollarda covid-19 virusining gepatobiliar tizimiga ta'sirini va uchrash ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqot usullari: Covid-19 bilan kasallangan va tasdiqlangan bemorlardan, 99 ta bemor, 49 nafar ayol, 50 nafar erkak holati o'rganildi.

O'rganish natijalari: COVID-19 ning kritik xolati sitokinli to'fonning turlaridan biri bo'lib, uning namoyon bo'lishida birlamchi va ikkilamchi gemofagotsitar limfogiotsitotoz yoki makrofaglarning faollashish sindromi xisoblanadi. Sitokin bo'roni keltirib chiqargan o'ziga hos, virusli SARS-CoV-2-endotelit deb nomlangan, patogenezida mikrosirkulyator oqimning shikastlanishi muhim rol o'ynaydi. Autopsiya tadqiqot materiallariga xamda kasallikning klinik manzarasiga asosan minimal darajada COVID-19 ning quyidagi morfologik va klinik turlarini ajratish mumkin: yurak, miya, ichak, buyrak, jigar, diabetik, tromboembolik (o'pka arteriyasining tromboemboliasida), septik (bakterial va mikotik sepsis mavjud bo'lmaganda), COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda oshqozon-ichak trakti shikastlanishining asosiy patogenetik mexanizmlari sifatida virusning epiteliotsitlarga bevosita ta'siri, sitokinli bo'ron ichak neyroregulyatsiyasiga bilvosita ta'sir qiladi. COVID-19da jigar shikastlanishi: bir nechta tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki covid-19 infeksiyasida jigar shikastlanishi, asosan gepatotsitlar o'rtacha sitolizi va jigar transaminazalari darajasining oshishi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon virusning gepatotsitlarga bevosita ta'siri natijasida kelib chiqadi.

Xitoyning: Uxan, Chzetsyan, Juanjou, Lanchjou kabi viloyatlarida bemorlarda olib borilgan tadqiqotlarda, bemorlarning: ishtaha pasayish, ko'ngil aynish, qusish, diareya, hid va ta'mning o'zgarishi kabilar aniqlandi, Amerika gastroenterologlar ma'lumotiga ko'ra jigar fermentlarining ko'tarilishi covid-19 bilan Kasallangan va tasdiqlangan bemorlarning 20-30 foizida uchraydi. Ushbu viloyatlarda N.Chen va boshqalar malumotiga ko'ra o'rganilgan 99 holatdan bemorlarning 30 foizdan ko'prog'ida jigar shikastlanishi belgilari ALT, AST, S-reaktiv oqsil kabilar ko'tarilishi aksincha gipoalbuminemiya(40gG'l)gacha kamayishi aniqlangan. Bu ko'rsatkichlar yuqoridagi viloyatlarda yashovchi

bemorlarda turlicha ekanligi aniqlandi. Chzetsyan viloyati 16%, Lanchjou viloyati 6.2%-22%, eng yuqori ko'rsatkich Uxan viloyatida ekanligi aniqlandi (24,1%-36,6% gacha), Olimlar bunga sabab qilib virusli yuklama, qonda viremiya darajalarini yuqoriligini sabab qilib ko'rsatishdi. Bemorlar jinsiga ko'ra yuqoridagi foizlarning kasallangan bemorlarning 58.2%-73.2% foizi erkaklarga, 26.8% -41.9% foizi ayollarga tog'ri kelishi aniqlangan.

Xulosa: Covid-19 fonida jigar disfunktsiyasi uchun o'ziga xos gepatotropik terapiya tamoyillari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Davolashda asosiy ro'l bemorlarning holatini yetarlicha baxolash, o'z vaqtida to'g'ri muolajalar olib borishga asoslanadi. Bemorning ishtaxasini pasayishi, gipoalbuminemiyaning bartaraf qilish, o'pka ventilyatsiyasini tiklash bilan antiagregant, antikoagulyant va albatta gepatoprotektorlar berish sitokinli bo'ronga qarshi kurashish bemorlarda davo muolajalarni samarali bo'lganligi jigar sinamalarini meyorga kelishi bemor shikoyatlarini kamayishi dinamikada bemor holatini yaxshilanib borishi davolash ishlarini tog'ri borayotganligini ifodalab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Профилактика, диагностика и лечение новой коронавирусной инфекции (COVID-19). Версия 9 от 26.10.20. Временно́е методические рекомендации Министерства здравоохранения Российской Федерации.
2. Ивашкин В.Т., Шептулин А.А., Золникова О.Ю., Охлобостин А.В., Полуэктова Е.А., Трухманов А.С., Широкова Е.А., Гоник М.И., Трофимовская Н.И. Новая коронавирусная инфекция (COVID-19) и система органов пищеварения. Российский журнал гастроэнтерологии, гепатологии, колопроктологии
3. Vetter P, Vu DL, L'Huillier AG, Schibler M, Kaiser L, Jacqueroz F. Clinical features of covid-19. BMJ.